

**«SMART BANK» AKSIYADORLIK JAMIYATI**  
**YAGONA AKSIYADORINING**  
**QARORIDAN KO'CHIRMA**

2024 yil «27» avgust

№ 08/1

Toshkent sh.

**Bankning 2023 moliyaviy yil yakuni bo'yicha yillik hisobotini tasdiqlash  
hamda sof foydasini taqsimlash yuzasidan**

O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq 2023 moliyaviy yil yakuni bo'yicha yillik hisobotini tasdiqlash hamda sof foydasini taqsimlash, jumladan, dividend miqdorini, to'lash shakli va tartibini belgilash Yagona aksiyador vakolatidagi masala hisoblanadi.

...

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunlari, Bank Ustavi va "Smart bank" aksiyadorlik jamiyati Yagona aksiyadori to'g'risidagi nizom"ga muvofiq Yagona aksiyador

**qabul qiladi:**

1. Bankning 2023 moliyaviy yil yakuni bo'yicha yillik hisoboti, buxgalteriya balansi, foyda va zararlar hisoboti ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Bankning 2023 yildagi sof foydasi quyidagicha taqsimlansin:

sof foydaning 248 462 074,77 (Ikki yuz qirq sakkiz million to'rt yuz oltmish ikki ming yetmish to'rt, 77) so'mi miqdorida zaxira fondiga ajratma amalga oshirilsin;

sof foydaning 1 400 000 000 (Bir milliard to'rt yuz million) so'mi miqdorida oddiy aksiyalarga dividend to'lansin;

sof foydaning qolgan 3 313 000 000 (Uch milliard uch yuz o'n uch million) so'mi taqsimlanmagan foydada qoldirilsin.

3. Dividendlar har bir oddiy aksiyaga 4 so'mdan jami 1 400 000 000 so'm miqdorida pul mablag'lari ko'rinishida ushbu qaror qabul qilingan kundan boshlab 60 (oltmish) kun ichida belgilangan tartibda to'lab berilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini ta'minlash bank Boshqaruvi zimmasiga topshirilsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish vazifasi bank Kuzatuv kengashiga yuklatilsin.

**Yagona aksiyador nomidan,**

"Leader Finance" MCHJ

Bosh direktori v.b.:

/imzo, muhr/

J.Xaydarov

*Ko'chirma asligi to'g'ri:*

T.Nurmuratov

